

## **Prezident tomonidan 12.01.2022 yildagi «Gidrometeorologiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-745-son Qonun imzolandi**

Ushbu Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 12.10.2021 yilda qabul qilingan va Senat tomonidan 19.11.2021 yilda ma’qullangan.

Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar belgilandi:

- atrof tabiiy muhit ifloslanishining monitoringi;
- gidrometeorologik axborot;
- gidrometeorologik jarayonlar;
- gidrometeorologiya faoliyati;
- ixtisoslashtirilgan gidrometeorologik axborot;
- muhofaza zonasasi va boshqalar.

Qonunda gidrometeorologiya faoliyatining asosiy prinsiplari keltirilgan, ushbu soha ob’ektlari va sub’ektlari, ixtisoslashtirilgan tashkilotlar belgilangan.

Gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- gidrometeorologiya faoliyatini amalga oshirish shartlari va tartibini belgilovchi NHHlarni qabul qilish, hisobga olish va hisobdorlik tizimlarini ishlab chiqish;
- gidrometeorologik kuzatuvlari va o‘lchovlarning yagona davlat tizimini shakllantirish hamda uning ishlashini ta’minlash;
- davlat boshqaruv organlarini hamda aholini atrof tabiiy muhitning amaldagi va prognoz qilinayotgan holati, ifloslanishi to‘g‘risidagi axborot, shu jumladan tezkor axborot bilan ta’minlash;
- gidrometeorologiya, iqlim o‘zgarishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi sohasida ilmiy fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish va boshqalar.

Qonunga muvofiq rasmiy ogohlantirishlar, prognozlar va aholining turmush faoliyati xavfsizligini ta’minlash, ehtimoliy zararning oldini olish bilan bog‘liq boshqa gidrometeorologik axborot undan foydalanuvchilarga faqat maxsus vakolatli davlat organi tomonidan taqdim etiladi.

Shuningdek hujjatda gidrometeorologik axborotni tayyorlovchilar hamda undan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatları, gidrometeorologik faoliyatni tashkil

qilish va amalga oshirish tartibi, uni moliyalashtirish, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik, gidrometeorologiya faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikni va bir qator boshqa normalarni buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan.